

**Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida
faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali
moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun
tasviriyl san'at va chizmachilik fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o'quv me'yoriyl hujjatlarga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

1. Test topshiriqlarining qo'llanishi

Spetsifikatsiya Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni tasviriyl san'at va chizmachilik fanidan oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o'tkazish uchun o'qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo'ljallangan.

2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me'yoriyl hujjatlar:

– Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

– Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim uchun tasviriyl san'at va chizmachilik fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 2-avgustdagi VM-425-son qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

3. Test sinovi topshiriqlarining mazmuni va tuzilishi.

Tasviriyl san'at va chizmachilik fanidan test topshiriqlari tegishli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi.

Test topshiriqlari Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun tasviriyl san'at va chizmachilik fani bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga yo'naltiriladi. Ular o'qituvchilarda tasviriyl san'at va chizmachilik fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirganlik darajasini sinovdan o'tkazadi.

4. Test topshiriqlari tuzilishi.

Test topshiriqlari quyidagi test turlaridan iborat bo'lishi mumkin:

Y1 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test;

Y2 – to'rttadan ko'p javob variantli, bir nechta to'g'ri javobli yopiq test;

Y3 – to'rtta savolga to'rtta to'g'ri javobni mos qo'yadigan yopiq test;

Y4 – har biri “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb belgilanadigan to‘rtta savoldan iborat yopiq test.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga asoslanib tuziladi. Test varianti, asosan, (Y1) to‘rtta javob variantli, bitta to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlaridan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, test topshiriqlari varianti turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasida tuzilgan test topshiriqlaridan tashkil topadi.

Tasviriylar san’at va chizmachilik fanidan barcha test topshiriqlari variantlarida qiyinlik darajasi bir xilda saqlanib, quyidagicha taqsimlanadi:

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi	Topshiriqlar soni	Topshiriqlar ulushi (%)
Oson	10	25
O‘rta	20	50
Yuqori	10	25
Jami:	40	100

Tasviriylar san’at va chizmachilik fanidan shakllantiriladigan variant, 10 ta oson, 20 ta o‘rta va 10 ta yuqori qiyinlik darajasidagi jami 40 ta test topshirig‘idan iborat bo‘ladi.

Test topshiriqlari variantlarining ekvivalentligi quyidagicha ta’minlanadi:

- har bir variant maxsus kompyuter dasturi asosida test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimlanishiga va ushbu spetsifikatsiyaga muvofiq shakllantiriladi.

- taqdim etiladigan barcha variantlardagi test topshiriqlari qiyinlik darajasining bir xilligi ta’minlanadi;

- turli (oson, o‘rta, yuqori) qiyinlik darajasidagi barcha test topshiriqlarini tuzishda darsliklardagi qo‘shimcha ma’lumotlar, tasviriylar san’at va chizmachilikga oid tayanch iboralar, atamalar, topshiriqlar, rasmlar va chizmalardagi ma’lumotlardan foydalaniladi.

5. Test topshiriqlarining mazmun, ko‘nikma va malakalar bo‘yicha taqsimlanishi.

Test varianti topshiriqlari fan bo‘limlari va qiyinlik darajasi bo‘yicha taqsimotida aks etgan bo‘limlarga oid mazmunni hamda 10 ta paragraf, 10 ta punktni o‘z ichiga oladi.

Test varianti topshiriqlari fan bo'limlari va qiyinlik darajasi bo'yicha taqsimoti:

Tasviriy san'at va chizmachilik

№	Mavzu nomi	Qiyinlik darajasi		
		oson	o'rta	yuqori
	Tasviriy san'atning ifoda vositalari			
1	Rang tushunchasi. Rangshunoslik nazariyasi. Tasviriy san'atda ishlatiladigan jihozlar. Tasviriy san'atda belgi va geraldika. Kompozitsiya tushunchasi.			
	Tasviriy san'at tur va janrlari			
2	Grafika va uning turlari. Rangtasvir va uning turlari. Haykaltaroshlik va uning turlari. Tasviriy san'at tarixi. Jahon va O'zbekiston tasviriy san'ati. Jahon va O'zbekiston me'morchilik san'ati. Tasviriy san'at janrlari. Jahon va O'zbekiston rassomlari hayoti va ijodiy faoliyati.			
	Amaliy bezak san'ati			
3	Amaliy san'at turlari. O'zbekiston amaliy bezak san'atida ramziy shakllar. Naqqoshlik san'ati. Amaliy bezak san'atida shakl va mazmun. Sharq miniatyura san'ati. Xalq amaliy san'at ustalarining hayoti va ijodi. Dizayn san'ati.			
	Tasviriy san'atda uslub va yo'nalishlar			
4	Tasviriy san'atda abstraksionizm, imperissionizm, klassitsizm, kubizm, postimperissionizm, puantilizm, realizm, romantizm, syurrealizm, simvolizm, ekspressionizm uslub va yo'nalishlari.			
	Inson qomatini chizishning metodik asoslari			
5	Inson qomatini tasvirlashdagi asosiy o'lchamlar va tasvirlash qoidalari. Odam plastik anatomiyasi. Ikki yoki uch figurali mavzuli kompozitsiya ishlash.			
Chizmalarni taxt qilish, standart, format, mashtab va geometrik chizmachilik				
6	Chizmachilik fanining rivojlanish tarixi. Mashtab. Format. Shriftlar. Geometrik yasashlar. Egri chiziqlar va ularni yasash. Tutashmalar. O'ramalami yasash.			
Proyeksion chizmachilik				
7	Ko'rinishlar. Qirqimlar va kesimlar. Aksonometrik proyeksiyalar.			
Mashinasozlik chizmachilik				
8	Mashinasozlik chizmalari (vint chiziq, vint sirt, rezba), Tishli uzatmalar. Qoyim (dopusk) va o'tqazishlar. Chizmalarda yu-			

	zalarning gadir-budurligini belgilash. Qoplamalar, termik va boshqa ishlov berish turlarini chizmalarda belgilash. Yig'ish birlik (buyum)larining va detallarining chizmalari. Sxemalar.			
Kompyuter grafikasi				
9	Grafik axborotlarning kompyuterda bajarilishi. Buyruqlar tugmasidan foydalanish. Muhandislik kompyuter grafikasi fani nimalarni o'rgatadi.			
Qurilish chizmachiligi				
10	Qurilish chizmalari to'g'risida ma'lumot(bino tiplari). Bino fasadi, plani va qirqim. Qurilishda ishlatiladigan materiallarning shartli belgilari. Temir-beton, yog'och konstruksiyalar.			
	Jami	10	20	10

6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga):
- 40 ta test topshirig'i uchun 80 daqiqa.

7. Test topshiruvchilar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Salixova, D.Shayakubova, B.Yunusova. 1-sinf uchun Tasviriy san'at fanidan darslik. "Kolorpak" MChJ bosmaxonasi. T-2021.
2. K.Miraxmedov, B.Yunusova, N.Berdiyev. 2-sinf uchun Tasviriy san'at fanidan darslik. "Kolorpak" MChJ bosmaxonasi. T-2021.
3. R.Xudayberganov, T.Li, B.Yunusova, S.Farmonov, O.Tashmuxamedova. 3-sinf uchun Tasviriy san'at fanidan darslik. Respublika ta'lim markazi. T-2022.
4. A.Sulaymonov, I.Rahmonov, Z.Sulaymonova. 4-sinf uchun Tasviriy san'at fanidan darslik. «Sharq» nashriyoti. T-2020.
5. T.Kuziyev, S.Abdirasilov, O'.Nurtoev, A.Sulaymonov. 5-sinf uchun Tasviriy san'at fanidan darslik. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T-2015.
6. X.Muratov, D.Mirxakimova, K.Abdullayev. 6-sinf uchun Tasviriy san'at fanidan darslik. Respublika ta'lim markazi. T-2022.
7. A.Sulaymonov, S.Muhamedjanova, Z.Sulaymonova, D.Xaytmetov. 7-sinf uchun Tasviriy san'at fanidan darslik. Respublika ta'lim markazi. T-2022.
8. S.Abdurasilov, N.Tolipov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (amaliy mashg'ulotlar), o'quv qo'llanma. "ALOQACHI. T-2007.
9. B.Baymetov. Plastik anatomiya (Amaliy mashg'ulotlar), uslubiy qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi. T-2011.
10. F.Mannopov. Plastik anatomiya, o'quv qo'llanma. "Info Capital Group" nashriyoti. T-2018.
11. B.B.Boymetov, M.S.Tolipov. Plastik anatomiya, o'quv qo'llanma. "ILM ZIYO". T-2005.
12. N.Isaxojayeva. Rangtasvir. Kompozitsiya (Natyurmort), o'quv qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi. T-2014.

13. N.Abdullayev, (T. Ko‘ziyev taxriri ostida). San‘at tarixi, II-jild. o‘quv qo‘llanma. “San‘at” nashriyoti. T-2001.
14. O.Yusupov. Rangtasvirda akvarel bilan ishlash texnikasi va texnologiyasi, metodik qo‘llanma. “CHASHMA PRINT”. T-2011.
15. P.Shabaratov. Kompozitsiya, o‘quv qo‘llanma. “Yangi asr avlodi”. T-2007.
16. B.Baymetov. Qalamtasvir, darslik. “Musiqqa” nashriyoti. T-2006.
17. S. Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova. Rangtasvir, o‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston”. T-2006.
18. S. M. Abduxamidov. “Tasviriy va amaliy san‘at” (Tasviriy san‘at o‘qitish metodikasi), o‘quv qo‘llanma. “BOOK TRADE”. T-2020.
19. S.Bulatov. Rangshunoslik, darslik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T-2009.
1. B.Baymetov, O‘.Nurtayev. Tasviriy san‘at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish, o‘quv qo‘llanma. “IQTISOD-MOLIYA”. T-2007.
20. X.E.Sultanov. Rangtasvir (Akvarelda natyurmort ishlash), o‘quv qo‘llanma. T-2019.
21. X.X.Muratov. Qalamtasvir, o‘quv qo‘llanma. IJOD-PRINT. T-2020.
22. S.Abdirasilov, N.Tolipov. Dastgohli rangtasvir, o‘quv qo‘llanma. “IQTISOD-MOLIYA”. T-2008.
23. R.Xalilov. Natyurmort, uchebnogo posobiya. «Navruz». T-2013.
24. R.Xalilov. Jivopis. Akvarel. uchebnogo posobiya. «Navruz». T-2013.
25. R.Xalilov. Risunok. uchebnogo posobiya. «Navruz». T-2013
26. O.Samadov. Tasviriy san‘at tarixi, o‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya”. T-2015.
27. Chizmachilik (arxitektura qurilish chizmachiligi). Adilov P., Ismatullayev R., Xalimov M., Tashimov N. T-2012.
28. Chizmachilik. I.Rahmonov., N. Qirg‘izboyeva., A.Ashirboyev., A.Valiyev., B.Nigmanov. T-2016.
29. Chizmachilik (geometrik chizmachilik). A.Valiyev. T-2013.
30. Chizmachilik (geometrik va proyeksion chizmachilik). M.K.Xalimov., Z.E.Mirzaliyev., F.E.Ochilov. T-2017.
31. Chizmachilik (arxitektura qurilish chizmachiligi). AdilovP., Ismatuillayev R., Xalimov M., Tashimov N.E. T-2012.
32. Geometrik chizmachilik (shrftlar). I.Rahmonov, A.Ashirboyev. T-2009.
33. Chizmachilik (geometrik va proyeksion chizmachilik). M.K.Xalimov. T-2013.
34. Kompyuter grafikasi. T. Rixsiboyev. T-2006.
35. Mashinasozlik chizmachiligidan ma‘lumotnoma. A.To‘xtayev, Y. Abramyan. T-2010.
36. Chizmachilik (chizmachilik fanida konstruksiyalash asoslari). I.Rahmonov, A.Valiyev. T-2011.
37. Geometrik va proyeksion chizmachilik J.Y.Yodgorov, T.R. Sobirov, N.J.Yodgorov T-2008.

38. Chizmachilik (ajralmas birikmalar) N.X.Gulomova, N.X.Vaxobova T-2016.
39. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarida (AutoCAD dasturi yordamida chizmalarni bajarish) Malikov K. T-2017.

Internet manbaalari

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa
2. <http://ziyonet.uz/uz>
3. <https://kitob.uz/>
4. <http://idum.uz/uz/>
5. <https://new.tdpu.uz/>
6. <http://old.natlib.uz:8101/e-library/index.html>
7. <https://lib.cspi.uz/>

**Izoh: Ushbu spetsifikatsiya O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi bilan kelishilgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Ilmiy-metodik kengashning 2022-yil 30-noyabrdagi 6-son yig'ilishi qarori bilan ma'qullangan.*